


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI



Ro'yxatga olindi: № BD-60211000-1.13
2024-yil "___" _____

**DRAMA NAZARIYASI
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 210 000 - San'at
Ta'lim yo'nalishi: 60211000 - San'atshunoslik: teatrshunoslik,
sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi,
kino san'ati tanqidi va tahlili,
san'at jurnalistikasi

Fan/modul kodi DN 20018		O'quv yili 2024/2025	Semestr 1-2-3-4	ECTS-Kreditlar 8	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili o'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Drama nazariyasi	120		120	240
2.	I.Fanning mazmuni Fanini o'qitishdan maqsad — “Drama nazariyasi” fani orqali talabalarni dramaturgiyada ro'y beradigan qonunlarni bilish va ularni amaliyotda qo'llash, janr xususiyatlariga ongli munosabatda bo'lishda, san'atlarning o'ziga xos xususiyatlarini, jarayonlarining mohiyatini tushinishda zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi. Shuningdek, bu fan talabalarning g'oyaviy jihatdan yo'naltirish, ma'naviy va nazariy dunyoqarashini kengaytirishda ahamiyatli ta'sir ko'rsatiladi. “Drama nazariyasi” fani talabalarida ilmiy dunyoqarash va nazariy tafakkurni, san'atning qonun qoidalari va jarayonlariga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantiradi. Barcha amaliy, nazariy fanlarning nazariy-uslubiy asoslari to'g'risida bilim hosil qiladi. Shunga ko'ra, amaliy jarayonlarni nazariy jihatdan baholash muhim hisoblanadi. “Drama nazariyasi” fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 1- va 2-kurslarda o'qitilishi maqsadga muvofiq. “Drama nazariyasi” fani gumanitar va san'at fanlar sohasiga kiradi va barcha san'atshunoslik bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladi. Mazkur fan boshqa san'atga oid fanlarning nazariy va uslubiy asosini tashkil qilib, o'z rivojida aniq yo'nalishdagi ilmiy-ijodiy fanlar uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.				
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)					
II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:					
1-Mavzu. Arastuning “Poetika” asarida drama nazariyasining asosiy qoidalari					
Aristotelning “Poetika” asaridrama haqida yaratilgan asarlarning dastlabkisi ekani. Ilkbordrama haqidagi fikrlar “Poetika” asarida tizimlangan tarzda berilganligi. “Poetika”da dramaturgik asarqurilishi, uningo'ziga xos shakllarining yaratilishi borasida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, aynanushbu asarda dramaturgik hamda teatrnng asosiy janrlaridan bo'lmish tragediyava komediya haqida batafsil fikrlar bildiribo'tilgan. Ayniqsa, tragediyaning barcha tomondan asoslab berilganligi, o'ziga xos qoidalarining mavjudligi ushbu dastlabki asarning ahamiyatini yanada oshiradi.					

	yil, 4 avgust, 153-son 2. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: O'qituvchi, 1995. 3. Tursunov T. Sahna va zamon. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. 4. Islomov T. Tarix va sahna. – T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998. 5. Tulyaxodjayeva M. Rejissura uzbekskogo dramaticheskogo teatra. – T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1995. Axborot manbalari 1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali. 2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 3. www. Ziyo.net 4. Kitobxon.uz 5. http://www.teatr.ru
7.	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: M.T.To'laxojayeva – O'zDSMI, "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedra professori, san'atshunoslik fanlari doktori F.M.Abduvohidov – O'zDSMI, "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedra dotsenti
9.	Taqrizchilar: A.H.Ismoilov – San'atshunoslik instituti bo'lim mudiri, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent O.Z.Rizayev - O'zDSMI, "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedra professori, san'atshunoslik fanlari nomzodi

2-Mavzu. Arastu fikriga ko'ra "harakat" va uning muhim elementlari

Aristotelo'zining "Poetika" asarida dramaning asosiharakatekanini aytib o'tadi. Aynan mana shu harakat dramatik asarvoqealarining rivojlanishiga ta'sir etadigan asosiy omil ekanini ta'kidlaydi. Xuddi mana shu harakatning birnecha unsurlari borasida muhimko'rsatmalarni berib o'tgan. Anglash, azoblanishva peripetiya kabilar Aristotelga ko'ra harakatning muhim elementlari ekani. Anglash qahramonning voqealarning barcha sababi bo'lmish haqiqatni anglabetishi, bilibqolish, baxtdan baxtsizlikka yoki baxtsizlikdan baxtga tomon o'zgarishi ekani. Azoblanish aynan anglashdan kelib chiqadigan va qahramonning pafosi ochilib, ruhiy azoblanish holatidir. Peripetiya voqe alarning tasodif tufayli keskin burilishi va kutilmagan holatlarga aylanishidir.

Aristotelning dramatik asar yaratishdagi asosiy talablari: haqqoniylik masalasi ekani. Drama asaridagi har bir voqeaning hayotiy va haqqoniy tasvirlanishi, iloji boricha yolg'onning bo'lmasligi asosiy talablardan ekani. Biroq agar tasvirlashda talab qilinsa yolg'onni san'atda inkor etib bo'lmasligi. Dramatik asarda odatiy rivojlanib kelayotgan hayotning inqirozga yuz tutishidan to uning yechimigacha bo'lgan voqealar yoritilar ekan, xuddi mana shu maqsadga xizmat qiladigan voqealarninggina bo'lishi. Ortqcha barcha narsaning bartaraf etilishi va ichki yaxlitlikka erishish masalasi asosiy intilishlardan ekani.

3-Mavzu. Dramatik asarda mazmun, syujet, fabula

Dramatik asarda eng asosiy unsurlardan biri voqealarning muvofiq tuzilmasi ekani. Asardagi voqealarning muvofiq tuzilmasining o'ziga xos birnecha turlarga bo'linishi. Fabulaning asardagi asosiy voqealar tuzilmasi ekani. Unda asosan bosh qahramon bilan bog'liq voqealar aks etishi. Syujetning asardagi barcha qahramonlar bilan mavjud bo'lgan voqealar ketma-ketligiekani. Bunda asosiy voqealardan farqli ravishda ikkinchi darajali qahramonlarning ham o'ziga xos liniyalarining mavjud bo'lishi. Mazmun asardagi barcha voqealarning ifodalanishi. Ya'ni dramatik asarning tafsilotlarigacha bo'lgan tasviri hisoblanadi.

4-Mavzu. Dramatik asar mavzusi va g'oyasi

Badiiy asarning har qanday turi muallif tomonidan ma'lum maqsadni ko'zlab ma'lum narsa yoki voqea haqida yaratiladi. Mavzu muallif dunyoqarashi mahsuli ekani va uning asarni nima haqida yaratishidir. G'oya muallifning yaratgan asari orqali nima demoqchi ekani. Har qanday badiiy asarda g'oya muhim rol oynaydi. Aytadigan biror fikri bo'lmagan san'at asari keraksiz bir holatga kelib qoladi. G'oya esa doimo umuminsoniy bo'lishi kerakligi. Dramaturgik asar g'oyasi bilan u asosida yaratilgan spektaklning g'oyasi hamisha hammuvofiq kelavermasligi. Spektakl mustaqil san'at asarisifatida namoyonbo'lishi.

5-Mavzu. Drama nazariyasini Arastudan keyingi rivoji

	Aristoteldan keyingidavrlarda ham "Drama nazariyasi"ning rivojlanganligi. Bu borada nafaqat nazariyotchilar, shu bilan birgalikda amaliyotchilarning ham dramaturgik asar yaratilishi, uning o'ziga xos qonuniyatlari borasida mulohazalar yuritgani. Lope de Vega, Moler, Shekspir, Pushkin, Tolstoy, Shiller kabi amaliyotchilarning bildirilgan bu boradagi fikrlari ayniqsa, katta ahamiyatga egaligi. Bundan tashqari asar kompozitsiyasi, ichki bo'linishi kabilar haqida konseptual fikrlar bildirgan nazariyotchilardan Lessing, Bualo, Didro kabilarning nazariy qarashlarining o'ziga xosliklari haqida batafsil ma'lumotlar berilishi. Amaliyotchilarning yaratgan asarlaridan misollar keltirilishi. Nazariyotchilarning nazariy qarashlari aksetgan asarlariniko'ribchiqish. 6-Mavzu. Lessingning "Gamburg dramaturgiyasi" Lessingning dramaturgiyaga bag'ishlangan fikrlari jamlangan "Gamburg dramaturgiyasi" asarida nazariyotchi o'z davri dramaturgik asarlarini muhokama qilib o'tganligi haqida. U yerda bildirilgan asar kompozitsiyasi, xarakter masalasi, mavusi va g'oyasi haqidagi original fikrlar Aristoteldan keyingi davr drama nazariyasining rivojlanishiga zamin yaratganligi. Badiiy asarhaqidagio'ziga xosfikrlariningmuhokama etilishi. Lessingning drama haqidagi qarashlari faqatgina "Gamburg dramaturgiyasi" asarida jamlanmaganligi va undan tashqari birqancha asarlar yaratgani. Shuningdek, Lessingning dramada harakat va xarakter masalasi muhokama etilgan asari "Laokon"ning san'at asarlarining o'zaro sintezi masalasining ko'rilishi. Haykaltaroshlik va dramada harakatning o'zaro o'xshashligi borasidagi o'ziga xos eksperimental ishlarining amalga oshirilganligi. 7-Mavzu. Dramada badiiy obrazlar va xarakterlar Dramaturgik asarda ham xuddi hayotdagi kabi kishilar tabiati bir xil bo'lmaydi. Aynan mana shu rang-baranglik tomoshabinni o'ziga jalb qiladi. Drama nazariyasida ham xarakter masalasi muhim xususiyatlardan ekani. Xarakterlarning o'ziga xosligi, ularning tabiiyligi va hayotiyiligi eng muhim masalalardan ekanining alomatlar. Obrazning xarakterdan farqli jihatlari. Obraz va obrazlilik. Xarakter va xarakterlilik. Ularning farqi va umumiy tomonlari. Xarakter inson irodasining mahsuli sifatida. 8-Mavzu. Dramaturgik konflikt turlari va uning shakllari Konflikt dramaning muhim komponentlaridan ekani. Konflikt tomosha asarining tomoshaviyligini ta'minlovchi, dramaning asabini o'zida tutib turuvchi omillardan hisoblanadi. Konfliktning azaldan asosiy tushuncha sifatida o'rganilib kelishi. Birqancha olimlar tomonidan unga turlicha munosabatlar bildirilganligi. Ularning o'zaro muvofiqligi va farqlari. Xususan, Gegel va Lessing fikrlarining tahlili. Xarakterning konflikt omili sifatida baholanishi. Konflikt- drama asosi va ruhidir. Konflikt - dramatik asarning yetakechi kuchi,
--	---

	12. Brext ijodi 13. XX asr dramasi 14. Yangi davrda yosh dramaturglar ijodi 15. Yangi davrda teatr san'ati faoliyati (adabiyot va matbuot, internet materiallari)
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - drama nazariyasi haqida, teatr san'ati xaqida, sahnaviy dramaturgiya mahoratining xususiyatlari, teatr dramaturgiyasining sir-asrorlari va maktablari xaqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>; - jahon va o'zbek ulug' teatr dramaturglari asarlariga tayangan holda, shuningdek davriy bosqichlar orqali drama nazariyasining va teatr dramaturgiyasining rivojlanish bosqichlarini to'g'risidagi <i>bilimlarga ega bo'lishi</i>; - dramaturgning ijodiy yondashuvdagi o'ziga xos uslubini, pesa hamda sahnaviy asarlarning kompozitsion to'g'ri anglash, sahna asarlari, pesa-spektakllarini tahlil qilish usullarini qo'llash, sohaga oid muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: - ma'ruzalar; - amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; - interfaol keys-stadilar; - blits-so'rov; - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - jarayonga asoslangan metod.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar - To'laxo'jayeva M., Qozoqboyev T., Drama nazariyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2011. – 98 b. - Aristotl. Poetika. – Newbyport: Focus publishing, 2006. 364 b. - Abdusamatov H. Drama nazariyasi. O'quv qo'llanma. – T.: G'afur G'ulom 2000. - Muhammad H. Ssenariyavislik mahorati. O'quv qo'llanma. – T.: TDSI, 2007. – 117 b. Qo'shimcha adabiyotlar - Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning muhim poydevoridir. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017

11. Dramaturgik konflikt (1-qism)
12. Dramatik konflikt (2-qism.)
13. Dramatik konflikt (3-qism)
14. Drama kompozitsiyasi
15. Dramaturgiya janrlari
16. Drama va teatrning o'zaro aloqasi
17. O'zbek ma'rifatparvarlik realizmidramaturgiyasi va janriy shakllari
18. O'zbek teatrida yangi mavzu rivoji
19. O'zbek dramaturgiyasida janriy tarkiblarningshakllanishi va rivoji.
20. Mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasida yangi uslubiy va janriy shakllarning paydo bo'lishi.

V. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Arastuning "Poetika" asarida drama nazariyasining asosiy qoidalari.
2. Arastu fikriga ko'ra "harakat" va uning muhim elementlari
3. Dramatik asarda mazmun, syujet, fabula.
4. Dramatik asar mavzusi va g'oyasi
5. Drama nazariyasini Arastudan keyingi rivoji
6. Lessingning "Gamburg dramaturgiyasi"
7. Dramada badiiy obrazlar va xarakterlar.
8. Dramaturgik konflikt
9. Drama kompozitsiyasi
10. Dramaturgiya janrlari
11. Drama va teatrning o'zaro aloqasi
12. O'zbek ma'rifatparvarlik realizmidramaturgiyasi va janriy shakllari
13. O'zbek teatrida yangi mavzu rivoji
14. O'zbek dramaturgiyasida janriy tarkiblarningshakllanishi va rivoji.
15. Mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasida yangi uslubiy va janriy shakllarning paydo bo'lishi.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Drama nazariyasi haqida tushuncha
2. O'zbek teatr dramaturglari
3. O'zbek teatri san'ati
4. Arastu poetikasi
5. Antik davridagi drama nazariyasi
6. Uyg'onish davrida yashagan dramaturglar ijodi
7. Klassitsizm davridagi drama nazariyasi
8. Ma'rifatparvarlik davrida drama nazariyasining rivojlanishi
9. Lessing va Didroning "drama" haqidagi qarashlari
10. A.Chexov asarlarida o'ziga xos ijodiy yondashuv
11. Drama nazariyasining davriy o'zgarishi

uning markazidir. Konflikt haqqoniy hayotdagi turli xildagi qarama-qarshiliklarni ifodalaydi. Aynan konfliktida dialogik shakl bilan bir qatorda drama qonuni aks etadi.

Dramaturgik konfliktni dramatik xarakterdan ajratib bo'lmaydi, negaki faqat konfliktida umumiylik, ijtimoiylikni o'z shaxsiyatida jamlovchi qahramon xarakteri ochib beriladi, faqat xarakter orqaligina konflikt realistik pesada ifodalanishi mumkin.

Konflikt ko'p ma'noli, u murosasiz sinfiy kurashni ham, axloqiy nuqtai nazarlarning ziddiyatligini ham, inson ongi va ruhiy hayotidagi murakkab ichki jarayonlarni ham ifodalaydi. Konflikt so'ngigacha ochiq bo'lishi mumkin, ammo murakkab idrok davomida bilvosita ochilib borishi ham mumkin.

Turli davrlarda yaratilgan dramatik asarlarda konfliktlarning ham turlicha bo'lishi. Konfliktning turli dramatik asarning ham yo'nalishini belgilashi. Shekspir, Chexov, Brext asarlaridagi konfliktning o'ziga xosligi, xususiyatlari. Ular asarlarining tahlili. Konfliktidan kelib chiquvchi janr masalasi. Janr tushunchasining dogmatik qarashlardan holi bo'lishi.

9—Mavzu. Drama kompozitsiyasi

Kompozitsiya so'zining ma'nosi. Uning san'atshunoslik faniga termin sifatida kirib kelishi va o'ziga xos mohiyat kasb etishi. Kompozitsion qurilma unsurlari. Uning dastlabki ko'rinishlari. Aristotelcha va Brextcha, Freytagcha kompozitsiya ko'rinishlari. Prolog va epilog haqida tushuncha. Ekspozitsiyaning dramatik asar muhitiga olib kiruvchilik xususiyatlari. Tugun asarning asosiy voqeasi sifatida. Rivojning rang-barang voqealarga boy bo'lishi. Kulminatsiya ruhiy va hissiy ko'tarilish, voqealarning eng avj nuqtasi sifatida. Asar g'oyasining aks etish nuqtasi bu aynan kulminatsiya ekani. Yechim va uning turli ko'rinishlarda bo'lishi. Butunva yaxlit asaryaratishdramaturgiyada muhimmasalalardanekani.

10-Mavzu. Dramaturgiya janrlari

Janr (fr. so'z bo'lib, tur, usul degan ma'nolarni anglatadi) San'at va adabiyotda ma'lum tur bo'linmasi. Adabiyotning epos, lirika, drama singari turlari bor. Mana shu 3 asosiy tur yana quyidagilarga bo'linadi: Eposda (roman, masal, hikoya – nasriy asarlar), lirikada (bag'ishlov, she'r – she'riy asarlar), dramada (tragediya, dramaning o'zi, komediya - dramatik asarlar). Bunday taqsimlashdan keyin biz har bir turning janrlarga bo'linishini ham ko'rishimiz mumkin. Xususan, tragediya – optimistik, falsafiy, romantik, drama – psixologik, maishiy, lirik, komediya - satirik, grotesk, fars singlarlarni o'z ichiga oladi.

Janr– bu badiiy usul, badiiy usullar majmui hamdir, bu ifodaviy vositalarni ma'lum majmuini syujetli tashkil etishning alohida tizimidir. Tasviriy-ifodaviy vositalar, usullar o'ziga xosligi ma'nosida janrlarni cheklash bir qator yo'nalishlar bo'yicha o'tishi mumkin – bular to'qnashuv turi, xarakter turi, hayotiy aloqalar turi kabilardan iborat, aynan shular janrning mazmuniy mohiyati hisoblanadi. Janrning ayrim elementlari asosan mazmunga (mavzu, g'oya –"nima" savoli), boshqasi shaklga

(kompozitsiya, lisoniy vositalar, tasvirlar – “qanday” savoli) tegishli bo‘ladi. Shunday qilib, asar janrini aniq belgilash uchun insonni badiiy ochishning o‘ziga xos xususiyatlarini taqozo etuvchi dramatik qahramon va voqelik o‘rtasidagi aloqa asosida yotuvchi to‘qnashuv turini aniqlash lozim bo‘ladi.

11 –Mavzu. Drama va teatrning o‘zaro aloqasi

Dramaturgiya mustaqil san‘at turi sifatida namoyon bo‘ladi. U ayni paytda adabiyot turlaridan ham hisoblanadi. Biroq dramaturgik asarni teatrsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Zero, dramaturgik asar tomosha qilish uchun yaratiladi. Shu tufayli ham dramaturgiyada sahna talablari, teatr xususiyatlari e‘tiborga olinishi, spetsifikasi o‘rganilishi lozim. Teatrning sintez san‘at turi sifatida namoyon bo‘lishi. Dramaturgiyaning teatrni asosiy komponentlaridan ekani. Dramaturgiyava teatrningo‘zaromuvofiqligiva farqlijihatlar.

12-Mavzu. O‘zbek ma‘rifatparvarlik realizmi dramaturgiyasi va janriy shakllari

O‘zbek teatrining yevropacha shaklga erishishi. Professional teatrning shakllanishi. XX asr boshlari O‘zbek teatrining shakllanish xususiyatlari. Ma‘rifatparvarlarning teatr vositasida millatnin go‘zligini anglatishga bo‘lgan intilishlari. Ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini tarqatishda teatrning o‘ziga xos o‘rni. “Padarkush” – birinchi O‘zbek yozma dramaturgiyasi namunasi sifatida. Jadidlar tomonidan yaratilgan ma‘rifiy pesalar va ularning ommaga ta‘siri. Ma‘rifatparvarlarning teatr shakllanishiga qo‘shgan hissasi. O‘zbek dramaturgiyasining tadrijiy rivojlanish bosqichlari va ularning mavzuiy-g‘oyaviy taraqqiyotining o‘ziga xosliklari. Sobiq Sovet tuzumining o‘rnatilishi va bu davming o‘ziga xos teatrining shakllanishi. Siyosiytazyiqlarningyuzaga kelishi. Badiybarkamol asarlarningshakllanish xususiyatlari.

13-Mavzu. O‘zbek dramaturgiyasida janriy tarkiblarning shakllanishi va rivoji

Mavzuiy va janriy jihatdan yangilanish o‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyotining asosiy xususiyatlari belgilagan bo‘lsa, qahramon xarakterining yangi turi murakkab, qarama-qarshi, meyoriy sxemalar doirasiga sig‘maydigan bo‘lib qoldi. Asosiy dramatik ziddiyatlarda tashqi fabula vaziyatlari voqelikning ichki psixologik mohiyatini ifodalovchi voqealar bilan almashadi. Pesa tarkibi, kompozitsiyasi o‘zgaradi.

Tarixiy dramalarni yaratilishi. Tarixiy haqiqatni badiiy haqiqat bilan birlashtirish, ijodiy fantaziyani tarixiy ma‘lumotlar bilan sintezlashga intilish.

O‘.Umarbekov dramaturgiyasida yangi ijtimoiy-psixologik janrlar motivlarini, axloqiy muammolarga murojaat, axloqiy-etik to‘qnashuv, maishiy dramadan chiqishga, davr tamoyillarini chuqur psixologik va keskin publitsistik shaklda

ifodalashga intilish kuchli.

14-Mavzu. O‘zbek dramaturgiyasida yangi mavzu rivoji

M.Boboyevning “Toshkentlik mehmon” psixologik dramasi, I.Sultonovning “Tilla zanjirlar” melodramasining janriy xususiyatlarining o‘ziga xosligi, “Tikonsiz kirpilar”, “Oq otlar uchun vals” pesalarida lirik, dramatik xususiyatlarning uyg‘unligi. SH.Xolmirzayev dramaturgiyasi –“Ziyofat” pesasidagi ijtimoiy va psixologik motivlarining kuchliliginiko‘ramiz.

O‘zbek dramaturgiyasida komediya janri evolyusiyasini, o‘zbek komedografiyasi an‘analarini anglash Abdulla Qahhorning “Tobutdantovush” pesaning keskin satirik yo‘nalishi, E. Vohidovning “Oltin devor” maishiy komediyasi va uning xususiyatlari, Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” fars elementli maishiy hazil komediya, A.Ibrohimovning “Doira bo‘ylab yugurish” fars, parodiya komediyasi, SH.Boshbekovning “Temir xotin” jiddiy komediyasi bilan izohlash mumkin.

15-Mavzu. Mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida yangi uslubiy va janriy shakllarning paydo bo‘lishi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvining san‘at sohasidagi yangilanishlardagi ahamiyati. Mustaqillik davri teatr san‘atining o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlari. Dramaturgiyadagi yangilanishlar. Janriy xususiyatlarning takomillashuvi. Mavzui va g‘oyaviy o‘zgarishlar. Fikr erkinligining ta‘minlanishi. Senzuraning yo‘qolishi va dramaturglar yaratib berilgan imkoniyatlar. Yangi davr dramaturgiyasida yaratilgan asarlarning o‘ziga xosligi. Dramaturgiyada yangi nomlarning paydo bo‘lishi va ularning yangi davr dramaturgiyasining shakllanishidagi o‘rni. Folklor-etnografik yo‘nalishdagi dramatik asarlarning paydo bo‘lishi va ularning o‘z tomoshabiniga ega bo‘lishi. Milliy qadriyatlarning, tarixiy shaxslar nomining tiklanishi. Ular haqidagi xolis haqiqatlarga tayanilgan asarlarning yaratilishi. Dramaning butunjahon integratsiyasi bilan omuxtalashuvi. O‘ziga xos kompozitsiyalarning eksperiment qilinishi.

IV. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Fanga kirish
2. Arastuning “Poetika” asarida drama nazariyasining asosiy qoidalari.
3. Arastu fikriga ko‘ra “harakat” va uning muhim elementlari
4. Aristotelga ko‘ra “harakat birligi”
5. Dramatik asarda mazmun, syujet, fabula.
6. Dramatik asar mavzusi va g‘oyasi
7. Drama nazariyasini Arastudan keyingi rivoji
8. Lessingning “Gamburg dramaturgiyasi”
9. Lessing va drama.
10. Dramada badiiy obrazlar va xarakterlar.